

2025-yil – “Atrof-muhitni asrash “yashil” iqtisodiyot yili” IJODIY PARVOZ

O'ZBEKISTON DAVLAT
SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTINING
MA'NAVYIY-MA'RIFIY,
ILMIY, IJTIMOYIY GAZETASI

2025-yil fevral № 2 (141) dsmi.uz nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi_uz

9-fevral – g'azal mulking sultoni Alisher Navoiy tavallud topgan kun



Jahon adabiyoti va tafakkuri tarixida o'chmas iz qoldirgan Alisher Navoiyning serqirra ijtimoiy-siyosiy, ijodiy, ilmiy-ma'rifiy faoliyati, boy adabiy-badiiy merosi asrlar davomida yuksak insonparvarlik, Vatanga sadoqat, adolat va ezgulik timsoli sifatida hamisha jahon ahlining e'tiborini tortib kelmoqda.

Hazrat Mir Alisher Navoiy o'ta murakkab sharoitda milliy va umuminsoniy g'oyalarni baland

*Istaganlar, bizni sahroi baloda istangiz,
Vodiyi hijron ila dashti fanoda istangiz.
Vomiqu, Farhodu Majnundeklar ul vodiy ara
Bolsalar paydo, meni ham ul aroda istangiz.*

ko'tarib maydonga chiqqani, o'zbek adabiy tiliga asos solib, uning o'lmas ruhi, qudrati va latofatini har tomonlama isbotlab bergani chinakam ma'naviy jasorat namunasi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Sh.M.MIRZIYOYEV

Ushbu rasmlar sun'iy intellekt tomonidan chizilgan



14-fevral – shoh va shoir
Zahiriddin Muhammad Bobur
tavallud topgan kun

Sen gulsenu men haqir bulbuldirmen,
Sen shu'lasen, ul shu'lag'a men kuldirmen.
Nisbat yo'qdur, deb ijtinob aylamakim,
Shohmen elga, vale senga quldurmen.



Bobur fe'li-sajiyasiga ko'ra Sezarga qaraganda suyuqliroq bo'lishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson, deb bitib qo'yilgan.

EDUARD XOLDEN,
ingliz tarixchisi

“YANGI O'ZBEKISTON MADANIYAT VA SAN'AT MENEJERLARI”

Bugungi kunda mamlakatimizda har bir soha o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichlari tomon shiddat bilan odimlab bormoqda. Ilm-fan, ta'lim-tarbiya, zamonaviy texnologiyalar, ma'naviy-ma'rifiy dasturlar va shu bilan bir qatorda barcha sohalarning ichki va tashqi ko'rinishlariga ko'zgu bo'lgan madaniyat va san'at sohasi ham Yangi O'zbekistonning yuksak taraqqiyoti uchun munosib ravishda bir qancha yangilanishlarni amalga oshirmoqda.

Milliy madaniyatimizni zamonaviy ilm g'oyalari asosida targ'ib qilish, xalqning ma'naviy ruhini ko'tarish va madaniy hayotini boyitish borasida sohada ko'plab yangiliklar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida sohani rivojlantirish, yangi marralarga olib chiqish, malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash borasida yetakchilik qilmoqda, – desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Xususan, Vazirlar Mahkamasining “O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori ijrosi va yoshlar o'rtasida madaniyat va san'at menejerlarini aniqlash, ularni kreativ fikrlashga o'rgatish, yangi g'oyalar asosida madaniyat va san'at muassasalarini yanada rivojlantirish, ularga aholi tashrifini oshirishga qaratilgan zamonaviy loyihalar va reklama roliklarini tayyorlash, bitiruvchi kadrlarni sohaga oid qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilish darajasini o'rganish maqsadida,

Davomi 4-belda

Bugungi
sonda:

Olomonga “Oyna” tutgan alloma

(YOXUD O'ZBEK TEATRI RIVOJIDA
MAXMUDXO'JA BEHBUDIYNING ROLI)

1914-yilda “Oyna”da bosilgan “Teatr, musiqa, she'r” nomli maqolasida adib teatrdagi ko'rsatiladigan tomoshalar zamonaning illatli odamlarini ogoh qilishga qaratilgani, qolaversa undan topiladigan pullar maktab, talaba va kutubxona va yoki bir musulmonning ehtiyojiga sarf qilinishi haqida so'z yuritadi.

Yana qancha qo'shiqlar
yaratilardi...

Xastalik yengishga uringan vujudini tik tutishga, sochilib ketayotgan so'zlarini yig'ishga, dilida to'planib, tashib ketayotgan fikrlarini tushuntirib berishga uringan, ruhan kuchli, va g'oyat iste'dodli inson sifatida ko'z oldimda qolgan. Bugun oramizda yo'q bo'lgan bu yuksak iste'dod sohibi bilan bo'lgan suhbatni sizga ham ilingim keldi...

Kutubxona ma'lumotning
o'zgarmas xazinasini

Kutubxonalar insoniyat tarixidagi eng qadimgi, eng muhim ta'lim va madaniyat markazlaridan biridir. Ular bilimlarni saqlash, taqdim etish va rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi. Kutubxonalar nafaqat o'quvchi, talaba, ilmiy xodimlar uchun muhim resurs, balki jamiyatning ijtimoiy va madaniy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi, o'zaro aloqalarni rivojlantiruvchi vositadir.



Mulmtoz adabiyotimizning mashhur siymosi

*Olam ahli, bilingiz, ish emas dushmanlig‘,
Yor o‘lung bir-biringizga erur yorlug‘ ish.*

Alisher Navoiy ijodining ko‘lami va ta‘sir darajasi oddiy insoniy tasavvurga sig‘maydi. Bu ijod zamon va makon chegaralarini tan olmaydi. Adibning purma‘no hikmatlar bilan bitilgan asarlari dunyoning istagan joyida yashayotgan, istagan millatga mansub inson ma‘naviyati uchun suv va havoday zarurdir. Alisher Navoiy asarlarining besh asrki o‘rganilib, o‘qilib kelinayotganligi ham shundan dalolat beradi. Bu asarlar har bir avlod qalbida vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, odamiylik va insonparvarlik g‘oyalari paydo qilib, tarbiyalab kelmoqda.

Akademik olim, professor Aziz Qayumovning suhbatlaridan birida, har qanday holatda ruhiyatim taskin topishi uchun Alisher Navoiyning asarlarini o‘qiyman, degan so‘zlarini esga olaman. Ayni bugungi kunda Alisher Navoiy ijodidan inson o‘z kayfiyatiga, dunyoqarashiga yarasha yangi-yangi fikrlar va ruhiy ozuqa oladi. Shoirning buyukligi shundaki, uning ijodi har qanday yoshga mos bo‘lib, inson ko‘nglini, undagi nozik mavjlarni aks ettiradi. Ruhiy poklik, ma‘naviy yuksaklikni, inson qadr-qimmatini tarannum etgan misralar bugungi biz yashayotgan davrda ya‘ni mehr-oqibat, insoniy fazilatlar “arzon” bo‘lgan dunyoda yanada ahamiyatli ko‘rinmoqda.

Shoirning inson ko‘nglini yuksak maqomga ko‘tarib ifodalay olgan misralariga e‘tibor bersak:

**Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka‘ba vayron bo‘lsa, obod aylagay.
Garchi xalq ozodasimen, yor agar bandarn desa,
Andin ortuq anglakim, bir banda ozod aylagay.**

Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” asarida insonni ulug‘lar ekan, uning boshqa mavjudotlardan farqi uning so‘zi ekanligini ta‘kidlaydi. Insondan bo‘lak biror bir zot so‘zlash, so‘z aytish imkoniyatiga ega emas **“Tangriki, insonni qilib ganji roz, so‘z bila hayvondin anga imtiyoz”**, deb yozadi. So‘zning olamni yaratish qudratiga ega ekanligini uqtiradi. Rivoyatlarga ko‘ra Alloh “kun” deganda olam yuzaga kelgan ekan. Navoiy ana shu rivoyatdan badiiy tasvir vositasi sifatida foydalanib, so‘zning naqadar katta yaratuvchilik kuchiga ega ekanligini ta‘kidlaydi.

Alisher Navoiy so‘zdan juda ham ehtiyotkorlik bilan foydalanish, uning o‘rnini bilib ishlatish lozimligini,

har bir so‘zni avval o‘ylab, istihola bilan, uning qadr-qimmatini tushirmasdan foydalanish lozimligini aytadi. Insonning kimligi uning og‘zidan chiqayotgan so‘ziga qarab belgilanadi. Bu borada, Navoiy: **“G‘uncha labli, o‘ta go‘zal sanamning og‘zidan yomon so‘z chiqsa, bir yaxshi so‘z chiqmasa, uning chiroyi oy kabi go‘zal bo‘lmasin, suvrati devor kabi bo‘lib qolaveradi. Boshqa bir mahbuba go‘zal bo‘lmasa ham suhbat shirin bo‘lsa, achchiq so‘zga ham shirin so‘z bilan javob bersa, dashnom bilan aqlni mast qila bilsa unga hamma maftun bo‘ladi, kishi ko‘ngli ko‘tariladi”**, deb ko‘plab shunga o‘xshash misollar keltiradi. Bu kabi o‘gitlar ham zamonamiz kishilari uchun juda zarur bo‘lib, ba‘zi bir holatlarda insonlar orasida so‘zning qadri yo‘qolib, muloqot va muomalada meyorini bilmay so‘z qadri paymol qilayotgan insonlar orasida ma‘noli so‘zlash san‘atini Navoiy orqali o‘rgatmoq kerakdir.

Chunki bu kabi o‘gitlar ham zamonamiz kishilari uchun juda zarur. Ba‘zi holatlarda so‘z aytishda andishani unutib qo‘yadiganlar, qo‘pol so‘zlab kishini ranjitadiganlar, insonlar bilan muloqotda meyorini bilmaydiganlar ko‘plab uchraydi. Bu borada ham ustozimiz Aziz Qayumovning ushbu fikrlari doim yodimga tushadi: **“Bizning xalqimiz juda kitobsevar xalq. Faqat ularga, kitob o‘qish san‘atini tushuntirishimiz kerak. Navoiy va uning asarlarini, yetaklab olib kirib bolalarimiz qalbiga singdirishimiz, uning bolaligidan boshlab purma‘no hikmatlari orqali yoshlarimiz qalbida Navoiyga mehr uyg‘otishimiz kerak. Shundagina ular Navoiyni sevadilar va uning asarlarini mutolaa qiladilar”**.

Haqiqatan ustoz aytganlaridek, Navoiy asarlarining

nafaqat o‘qilishiga, o‘zlashtirib olinishiga, tushunib, uqib olinishiga erishish hozirgi kunimiz uchun muhim ahamiyatga egadir. Alisher Navoiy ijodiga jahon adabiyoti buyuk namoyondalari ham allaqachon baho berib bo‘lganlar. Masalan, Fransuz adabiyotshunosligida Alisher Navoiy ijodiga haqqoniy bahoni mashhur adib Lui Aragon o‘zining 1955-yilda yozgan monografiyasining “Navoiy” deb nomlangan bobida shunday fikrlarni yozib qoldiradi: **“O‘zbekiston haqida so‘z yuritganda, bu o‘lkaning Alisher Navoiy vatani ekani beixtiyor yodimizga tushadi.**

Navoiy, Sa‘diy va Attor she‘riyati, XII asrda ijod qilgan ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy izidan borib, uning “Xamsa” asari an‘analarini davom ettiradi. Bugungi kunda Chirchiqdan tortib to Samarqand va Buxorogacha, Xorazm va Amu bo‘ylarida, Farg‘ona vodiysida ham Alisher Navoiyning nomi hurmat ila tilga olinadi. Navoiy Pushkin va Shevchenko, Nizomiy va Rustaveli kabi buyuk klassiklar qatorida turadi. Uning asarlari “Kalevala” va “Igor jangnomasi” dostonlaridek sevib o‘qiladi. Zamonamizning mashhur shoirlari, chililik Neruda, pragalik Nezval, ispaniyalik Alberti, kubalik Gilyen, filadelfiyalik Louonfells va turk Nozim Hikmat Navoiy ijodiga ta‘zim qiladilar”.

Mashhur fransuz adibi Lui Aragonning Alisher Navoiy ijodiga bu qadar keng to‘xtalib, unga haqqoniy baho berishi, shoir merosining jahon adabiyotida tutgan yuksak mavqei belgilashda muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olgan holda, aytish mumkinki, aziz yoshlar biz Navoiy ijodiga befarq bo‘lmaylik va har birimiz adib ijodining noyob durdonalaridan bahramand bo‘lishga intilishimiz kerak.

BUYUK ZOTGA EHTIROJ

9-fevral – Buyuk shoir, mutafakkir, davlat va jamoat arbobi, g‘azal mulkining sultoni, o‘zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy tavallud topgan kun munosabati bilan yurtimiz bo‘ylab tashkiliy-amaliy, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar, Navoiyshunos olimlar va yozuvchilar bilan davra suhbatlari hamda targ‘ibot-tashviqot ishlari, bayram tadbirlari boshlanib ketgan. Buyuk mutafakkirning 584 yilligi respublikamizning barcha oliy ta‘lim muassasalarida, maktablarida hamda mahallalarida keng miqyosda nishonlanmoqda.



Xususan, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutimizda ham bobomiz tavalludining 584 yilligi munosabati bilan “Kutubxona-axborot faoliyati” fakultetning 4-bosqich talabalari ishtirokida so‘z mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy tavallud topgan kunga bag‘ishlab, ma‘naviy-ma‘rifiy kecha o‘tkazildi. Shuningdek, tadbirga Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi katta ilmiy xodimi, Navoiyshunos olim Yusuf Tursunov ham tashrif buyurib,

Navoiyning serqirra ijodiy faoliyatiga alohida to‘xtalib o‘tdi. Tadbirning badiiy qismida talabalar tomonidan Navoiy qalamiga mansub ruboiylar va g‘azallar ijro etildi, kuy-qo‘shiqlar va raqslar esa tadbir ishtirokchilariga yuqori kayfiyat bag‘ishladi.

Undan tashqari, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari saroyida ilk marotaba institutimiz rahbariyati tomonidan Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligiga bag‘ishlangan **“Navoiydan**



taralgan mangu navolar” nomli jonli ijrodagi teatrlashtirilgan konsert dasturi o‘tkaziladi. O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayevning bevosita tashabbusi bilan tashkil etilgan mazkur konsert dasturida institut professor-o‘qituvchilari va iste‘dodli talaba-yoshlari tomonidan Alisher Navoiy g‘azallari kuyga solinib, mahorat bilan ijro etildi. Sahna ko‘rinishlarida shoirning hayoti hamda asarlaridan parchalar namoyish etildi. Bundan tashqari, dasturdan sevgi-muhabbat va vatanparvarlik ruhidagi kuy va qo‘shiqlar hamda she‘rlar ham o‘rin oldi.

9-fevral kuni erta tongdan institutimiz-

**Baxtiyor SAMIYEV,
Madaniyat va san‘at
muassasalari faoliyatini
tashkil etish hamda
boshqarish ta‘lim
yo‘nalishi
3-bosqich talabasi,
“Islom Karimov nomidagi
davlat stipendiyasi” sohibi**

ning professor-o‘qituvchilari, iqtidorli talabalari hamda keng jamoatchilik vakillari poytaxtimizdagi “Adiblar xiyoboni”da so‘z mulkining sultoni, adabiyot gulshanining ulug‘ siymosi Alisher Navoiy tavalludiga bag‘ishlangan tadbir munosabati bilan shoir haykali poyiga gul qo‘yishdi.

Umuman olganda, Alisher Navoiy tavalludiga bag‘ishlangan bunday tadbirlar, biz yoshlarni bobomizning asarlarini o‘rganishga, ma‘naviy-madaniy jihatdan rivojlanishimizga xizmat qiladi. Ushbu tadbirlar bizni buyuk zotning merosini qadrlash va uning g‘oyalari asosida yanada yuksak ma‘naviyatli jamiyat qurishga undaydi. Chunki, Alisher Navoiy bobomizning yozgan barcha asarlari, xayrli ishlari orqali bizlarni yaxshilikka, adolatga, ilmga va insoniylikka da‘vat etadilar. U kishining hayoti va merosi, har bir birimiz uchun dasturulamal hisoblanadi. Shunday ekan, biz yoshlar doimo buyuklarimizga hurmat va e‘tiborda bo‘lishimiz shart va zarur.



Bir-birni necha kuni g'animat tutungiz...

Zulfiya MARUFOVA,
“O'zbek va jahon filologiyasi”
kafedrasi mudiri,
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

Xalqimizning g'ururi va iftixoriga aylangan betakror siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk shoir, mohir sarkarda va tadbirli davlat arbobi, geograf, biolog, tarixchi, va adabiyotshunos olim sifatida dunyoga mashhur zotdir. U keng dunyoqarashi va komil aql-zakovati bilan Hindistonda ma'rifatparvar davlat arbobi sifatida nom qozongan bo'lsa, “Boburnoma” asari bilan jahonning mashhur tarixnavislari qatoridan ham joy olgan. Uning nafis g'azal va ruboiylari turkiy she'riyatning eng nodir durdonalaridan sanaladi. “Mubayyin”, “Harb ishi”, “Xatti Boburiy” asarlari va “Aruz” risolasi islom qonunshunosligi, harb san'ati, nafis san'at, she'riyat va til nazariyasi sohalari rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Bobur adabiy merosining bebaho durdonalaridan biri “Boburnoma” asaridir. Unda Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlariga oid ko'plab ma'lumotlar jamlangan. Asar davriy jihatdan uch qismdan iborat bo'lib, birinchisi – XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro'y bergan voqealarni; ikkinchisi – XV asr oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Kobul ulusi, ya'ni Afg'onistonda ro'y bergan hodisalarni; uchinchisi esa Shimoliy Hindiston xalqlarining XVI asrning birinchi choragidagi tarixiga doir lavhalarni o'z ichiga oladi. “Boburnoma” – 1500 ga yaqin tarixiy shaxs hamda o'simlik va hayvonot olamiga doir yuzlab nodir ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan qomusiy asar bo'lib, 20 dan ortiq tilga tarjima qilingan.

“Boburnoma” asari kitobxonga Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindiston xalqlari tarixi, o'sha davrda boburiylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti, tabiati va geografiyasi bilan tanishish imkonini beradi.

“Boburnoma”ning tarjima qilgan ingliz olimi Uilyam Erskin Boburga haqida shunday degan edi: “Osiyoda saxovati va mardligi, iste'dodi, ilm-fanga, san'atga mehri va ular bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi jihatidan Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi”.


Boburning insoniy fazilatlarini, hayotga bo'lgan mehr-muhabbati uning she'riyatida ham o'z ifodasini topgan. Shoirning har bir g'azali, ruboiysi va tuyuqlarida hassos qalb nidolari, sog'ingan ko'ngil iztiroblari, ona yurtga va yaqin insonlarga bo'lgan cheksiz muhabbati va armonlari o'z aksini topgan.

**Har kimki, vafo qilsa – vafo topqusidur
Har kimki, jafo qilsa – jafo topqusidur!
Yaxshi kishi ko'rماغay yomonlik hargiz,
Har kimki, yomon bo'lsa, – jazo topqusidur!**

Ruboiyni Boburning o'z boshidan kechirgan ko'rguliklaridan chiqargan xulosalari, deyish mumkin. U murakkab hayoti davomida har turli xiyonatlarga ham duchor bo'ldi. Har kim qilmishiga yarasha jazo olishi, shuning uchun she'rlarida inson hamisha yaxshilik qilib yashashi lozimligini ta'kidlaydi.

Boburning qismatiga o'zga yurtlarda yashash bitilgan ekan. Garchi shoh bo'lsa-da, ko'ngli musofirlikda g'arib bo'lgani, yaqinlar diydori g'animat ekanligi, firoq hasratlari otashin satrlarda jo bo'lgan:

**Ahbob, yig'ilmoqni farog'at tutungiz,
Jamiyatingiz borini davlat tutungiz.
Chun gardishi charx budurur, Tengri uchun,
Bir-birni necha kun g'animat tutungiz.**



Bobur buyuk saltanat egasi bo'lishiga qaramay, vatanni tashlab ketgani uchun o'zini eng baxtsiz inson deb biladi, o'zini gunohkor his qiladi. Bundan anglashiladiki, Bobur shaxsi uchun eng muqaddas qadriyat – vatanga sadoqat. Bu tuyg'u oldida boshqa hayot lazatlari, toj-u taxt, boylik sururi hech qanday qimmatga ega emas.

**Tole yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.
O'z yerini qo'yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.**

Vatandan ayro yashagan inson, hayoti nechog'li mukammal va to'kis bo'lmasin, yurt sog'inchidan azob chekadi. Bobur murakkab hayoti davomida ko'p qiyinchiliklarga duch keldi, hamisha g'urbat va mashaqqatda yashadi. Uning qalbini shoh va shoir o'rtaqidagi ziddiyatli tuyg'ular mudom parchalab keldi. Har qadamida iztirob, mehnat va xiyonatlar unga hamroh bo'ldi:

**Har yong'aki azm etsam, yonimda borur mehnat,
Har soriki yuzlansam, o'trumg'a kelur qayg'u,
Yuz javru sitam ko'rgan, ming mehnatu g'am ko'rgan,
Osoyishi kam ko'rgan, mendek yana bir bormu.**

Shoir ruboiylarida umidsizlik ruhi seziladi. Ishonchlari poymol qilingan, mehr-u vafosiga munosib javob olmagan, yaxshilik qilib yomonlik ko'rgan miskin ko'ngil o'zidan o'zga do'st yo'qligiga imon keltiradi:

**Jonimdan o'zga yori vafodor topmadim,
Ko'nglimdan o'zga mahrami asror topmadim,
Bobur, o'zingni o'rgata ko'r yorsizki, men,
Istab jahonni, muncha qilib yor topmadim.**

Bobur ruboiylaridagi shakl va mazmun uyg'unligi, badiiy tasvirning kuchliligi odamni o'ziga jalb qiladi.

**Hijron qafasida jon qushi ram qiladur,
G'urbat bu aziz umrni kam qiladur.
Ne nav bitay firoq-u g'urbat sharhin,
Kim ko'z yoshi nomaning yuzin nam qiladur.**

She'rni o'qir ekansiz, vatandan uzoqda sog'inchdan yuragi qon bo'lgan kishining firoq dardini yozmoqchi bo'lganida qog'ozning usti ham ko'zyoshidan nam bo'lgani manzarasi ko'z oldingizda gavdalanadi.

Bobur she'riyatida yorga vafodorlik motivlari alohida ahamiyatga ega. Ularda shoir shu qadar vafodor, go'zallik shaydosi, fidoyi oshiq sifatida tasavvur uyg'otadi.

**Sen gulsen-u, men haqir bulbuldurmen,
Sen shu'lasen-u, ul shu'lag'a men kuldurmen.
Nisbat yo'qtur, deb ijtinob aylamakim,
Shahmen elga, vale sanga quldurmen.**

Shoir she'riyatida insonning axloqi va barkamolligi masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Shoir inson qadrini ko'tarib, xudbinlik, izzattalablik, baxillik, manmanlik noqobil sifatlardir. Shoir ruboiylarida insonning ma'naviy tarbiyasi haqida qimmatli maslahatlar beradi.

Boburning 1522-yilda o'g'li Humoyunga atab yozilgan “Mubayyin” nomli asari o'sha davr soliq tizimiga doir shar'iy qonun-qoidalar bayoniga bag'ishlangan. Mumtoz adabiyotshunoslik qoidalariga bag'ishlangan “Aruz risolasi”da esa 537 ta she'rni tahlil qilgan.

“Xatti Boburiy” deb atalgan risolasi arab alifbosi ta'limi turkiy tillar, xususan, o'zbek tili asosida birmuncha soddalashtirib berilgan. Shoir Qur'oni karimni o'zi ishlab chiqqan “Xatti Boburiy” alifbosida ko'chirtirgan.

Adabiyot, tarix, musiqa va san'atdan yaxshi xabardor bo'lgan Bobur doim olimu fozillar davrasida bo'lgan, ijod ahliga, kasbu hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko'rsatib, homiylik qilgan. Shu sababdan bo'lsa kerak, ingliz tarixchisi Eduard Xolden unga “Bobur fe'li-sajiyasiga ko'ra Sezarga qaraganda suyuqliroq bo'lishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo'yilgan”, deb ta'rif bergan. Mirzo Muhammad Haydar esa “Tarixi Rashidiy” asarida bunday yozadi: “...U turli fazilatlar bilan bezangan va maqtoqli xislatlarga ega bo'lgan bir podshoh edi. Barcha fazilatlar orasida shijoat va muruvvati ustunroq turardi. Turkiy she'rni Amir Alisherdan keyin hech kim Bobur yozgan darajada yozgan emas”.

Ijod va san'at odamlariga bunday samimiy va mehrli munosabat bejiz emas edi, albatta. Boburning o'zi tabiatan ijodkor bo'lgan. Navqironlik yillaridan umrining oxirigacha ijod bilan shug'ullangan. Hech bir sharoit va vaziyatda ijoddan to'xtamagan, natijada avlodlarga har jihatdan takomilga yetkazilgan boy ilmiy va adabiy meros qoldirgan.

Javoharla'l Neru o'zining “Hindistonning kashf etilishi” kitobida: “Bobur dilbar shaxs edi. Uyg'onish davrining ajoyib sultoni, kuchli, tadbirkor kishi bo'lib, san'atni, adabiyotni, go'zallikni sevardi”, deb yozgan. Shuningdek, Javoharla'l Neru, Mahatma Gandi kabi hind davlat arboblari va olimlari Bobur (1483-1530) hamda Boburiylar nafaqat Hindiston uchun, balki taraqqiy etgan dunyo tarixida ham katta ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etdilar.

Temuriylar sulolasining buyuk vakillari hisoblanmish boburiylar tarixi hind xalqlari tarixida o'zining munosib o'rniga ega. G'arbdagi boburshunos olimlardan biri ingliz olimi Valdemar Xansen o'zining 1986-yilda Dehlida chop etilgan “Tovus toj yoki mo'g'ullar saltanati qismati” kitobida boburiylar sulolasining Hindistondagi 332 yillik faoliyatiga yuksak baho beradi: “Hindiston va uning sakkiz ming yillik tarixi bamisoli bir to'vus bo'lsa, o'sha ko'p ming yillik tarixdagi boburiylar sulolasining 332 yillik hukmronlik davri ana shu to'vusning gultojisidir”.

Bobur o'zining mashhur asarlari bilan keng fikrli tarixnavis, yetuk adib, lirik shoir va ijtimoiy masalalar yechimiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan katta olim sifatida dunyo ilm-fani ravnaqi va ma'naviy-ma'rifiy rivojida munosib o'rin egallaydi.



OLOMONGA OYNA TUTGAN ALLOMA

(yoxud o'zbek teatri rivojida Mahmudxo'ja Behbudiyni roli)

O'zbek teatri haqida so'z borganda, uning asoschilari bo'lmish buyuk ma'rifatparvar jadidlarimizni tilga olmaslikni iloji yo'q. Ular orasida birinchi navbatda Mahmudxo'ja Behbudi nomi o'zbek teatri tamal toshini qo'ygan adib sifatida ulug'lanishi lozim.

O'zining "Oyna" jurnali orqali teatr san'atini uzluksiz ravishda targ'ib etgan, "Teatr nedir?", "Turkistonda birinchi milliy teatr", "Teatr, musiqa, she'r" kabi maqolalari bilan Turkistonda teatr tanqidchiligini boshlab bergan ushbu jadid haqida o'z davrining yetuk intellekt egalaridan biri Fayzulla Xo'jayev shunday deydi: "Siyosiy, ijtimoiy faoliyat va bilimning kengligi jihatidan Turkistonning o'sha vaqtdagi jadidlaridan unga teng keladigani yo'q, deb o'ylayman". Darhaqiqat, Mahmudxo'ja Behbudiyni o'zi aytganidek, teatr – jamiyat o'z illatlaridan xabardor bo'la olguvchi ibratxonadir, har kim o'zini ko'rguvchi oynadir. Islohotlar uchun muhim maydon vazifasini o'tagan teatrning mavjudligini o'sha davrdagi taraqqiyot ko'rsatkichi edi. Qolaversa, bu davrda teatr taraqqiyoti milliy inqilobning asosiy bo'g'ini vazifasini ham o'tagan, deb bimalol aytishimiz mumkin.

Maxmudxo'ja Behbudi 1914-yilning may oyida "Oyna" jurnalida bosilgan "Tiyotir nedir" (Teatr nedir) nomli maqolasida bu sohadagi fikrlarini yaqqol dalillar bilan, keng mushohada ila so'zlagan. Behbudi birinchi navbatda **"Kay bud monandi diydan?"** ya'ni, **"eshitmoq qachon ko'rmoq kabitur?"** degan iborani ishlatishi ham teatrning inson ongiga ta'siri beqiyos ekanligiga dalil bo'lgan.

O'zining "Padarkush" dramasi bilan o'zbek dramaturgiyasiga tamal toshini qo'ygan bu adibning ijodi o'z navbatida mustamlakachilar zulmidan ezilayotgan xalqni ma'rifatli qilishda katta rol o'ynadi. Behbudi "Padarkush" dramasi bosishga ruxsat so'rab Turkiston general gubernatoriga yuboradi, lekin bosishga ruxsat berilmagach, pyesa nashri uchun boshqa bir yo'l izlaydi



**Mahmudxo'ja
Behbudi
(1875–1919)**

va pyesa muqovasiga rus tilida **"Rossiyaning Fransuz istilosidan ozod bo'lishi va mashhur Borodino jangi xotiralari yubileyiga bag'ishlayman"**, – deb yozib qayta jo'natadi. Shu tariqa oradan ikki yil o'tgach, 1913-yilda ruxsat keladi. Asar shu yili Samarqandda Gazarov va Sliyanov matbaasida bosilib chiqdi va Turkistonda keng tarqaldi Pyesa bosilib chiqqandan keyin ham uni sahnaga qo'yish uchun yaqin bir yil vaqt ketdi. Muallif bu haqdagi xatlarga javoban kinoyaomuz: **"Turkistonda bekor odam yo'qki, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi**

yo'qki, teatr sahnasiga chiqib, "masxarabozlik" qilsa", deb yozgan edi. "Padarkush" dramasi birinchi masala bu omi xalqni ongini oshirish, millatni ma'rifatli qilish, ilmsizlikni tugatish bo'lgan. Darhaqiqat, o'sha davr ro'znomalariidan birida – **"Ong o'zgarmaguncha boshqa o'zgarishlar negiz tutmas"**, – deyilgani bejiz emas. Jadidlar qatorida ilm-u ma'rifatni targ'ib etgan Behbudi xalq ongining o'zgarishi uchun faqatgina maktablar kifoya qilmasligini, teatr esa yov bosqinidan, dushmanlar talon-tarojidan charchagan olomon

E'zoza KARIMOVA,
"Madaniyatshunoslik"
mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

uchun tom ma'noda oyna vazifasini bajarishini va shu orqali millatning har bir a'zosi o'zining yaxshi-yu yomonini, nuqsoni-yu kamchiligini ko'ra bilishligini ta'kidlaydi.

Zamona odamlari bid'at va xurofotlarga mukkasidan ketgan bir davrda Behbudi ularni tafakkurga undaydi. Teatr va unda bo'ladigan ishlarni "harom ustiga harom" deb tanqid qilgan ba'zi odamlarga nisbatan Behbudiyni o'ziga xos javobi bor edi. 1914-yilda "Oyna"da bosilgan "Teatr, musiqa, she'r" nomli maqolasida adib teatrda ko'rsatiladigan tomoshalar zamonaning illatli odamlarini ogoh qilishga qaratilgani, qolaversa undan topiladigan pullar maktab, talaba va kutubxona va yoki bir musulmonning ehtiyojiga sarf qilinishi haqida so'z yuritadi.

Teatr inson tafakkurini yuksaltirishda, xususan, yoshlarni ezgulikka chorlash, vatanni sevis, ota-ona, oila va do'stlikni qadrlash va o'z kasbiga fidoyilik tuyg'ularini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ya'ni, u insonga hayotiy saboq beradi. Davlat teatrlari bugun o'zga bir muhit kasb etadi. Kundan-kunga ularga e'tibor yana ham oshib bormoqda. Shu bilan birga teatrlarimizda spektakllarni xalq ommasiga havola etishda ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'ymoqdami. O'z-o'zini moliyalashtirish va marketing tizimidan uzoq bo'lgan teatrlarimiz bugun tomoshabinlar bilan liq to'la emas. Afsuski, birinchi teatr asos solgan, ilk o'zbek dramasi yozgan Behbudi nomi teatr so'zi bilan uyg'unlashganini deyarli uchratmaymiz. Bundan qariyb bir asr avval 1926-yildayoq sharqshunos Laziz Azizzoda Behbudi to'g'risida quyidagi so'zlarni aytgan edi: **"Agar O'zbekistonda Navoiy va Ulug'bekdan boshqa uchinchi bir ilm va madaniyat arbobiga haykal qo'yiladigan bo'lsa, shubhasiz, bu Behbudiyni haykali bo'lg'usidir"**. Darhaqiqat, Hazrat Navoiy-u Mirzo Ulug'bek kabi buyuklar qatorida ko'rilgan allomani har tomonlama tadqiq etish masalalari bugungi kunimiz va kelajagimiz uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

So'zim so'ngida buyuk jadidlar avlodlaridan Behbudiyni qalamiga mansub quyidagi jumlani keltiraman: **"Turkiston bolalarini ilmsiz qo'y-mangiz!"**

Ibrat

**Qo'lyozmalarini do'stlariga o'qitib,
muhokamaga qo'ygan adib**

Buyuk rus satirik adibi Gogolning yozgan asarlari son jihatdan emas, balki sifat darajasiga qarab ahamiyatlidir. Har bir qo'lyozmasi ustida oylab ter to'kkan. Ba'zi qissalarini yillar davomida ishlaganini eshitganmiz. Ayniqsa pyesalarini yozib tugatgandan so'ng, o'zining 3-4 ta do'stini to'plab har biriga qo'lyozmaning dastlabki variantini o'qitgan va qizg'in muhokamaga qo'ygan ekan. Bahs va munozaralar tugatgandan keyin esa o'tirib, qo'lga qalam olgan va pyesaning ikkinchi variantini yozishga kirishgan...





5 HODIY PARVOZ

Yodnoma

2025-yil fevral
№ 2 (141)

Yana qancha qo'shiqlar yaratilardi...

Yaxshi suhbatlar kishida go'zal xotiralar qoldiradi. Ko'nglingga yaqin, san'atni, adabiyotni sevadigan, vijdoni, qalbi uyg'oq insonlar bilan qilingan gurunglarni qayta-qayta o'qiging kelaveradi. Hatto u (suhbatdoshing) bu olamdan o'tgandan so'ng ham.

O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi Anor Nazarov bilan bundan bir necha yil oldin gaplashgandim. Xastalik yengishga uringan vujudini tik tutishga, sochilib ketayotgan so'zlarini yig'ishga, dilida to'planib, toshib ketayotgan fikrlarini tushuntirib berishga uringan, ruhan kuchli, va g'oyat iste'dodli inson sifatida ko'z oldimda qolgan. Bugun oramizda yo'q bo'lgan bu yuksak iste'dod sohibi bilan bo'lgan suhbatni sizga ham ilingim keldi...

Nargiza ASADOVA,
Madaniyat va san'at sohasi
menejmenti 1-kurs magistranti

“QUTADG'U BILIG”NI O'QIYOTGAN INSON

Ko'p qavatli uyning to'rtinchi qavati. Bir oz sarsongarchilikdan so'ng topib borgan xonadonimning bekasi Matlubaxon Rahimova qiya ochiq eshikdan kulib chiqdilar. Ayovsiz yillarning zahmatlari yoshligini, nazokatini ayoldan butunlay olib ketmaganligini uning ma'sum tabassumidan, nigohlaridagi mehrdan ilg'ash qiyin emas. Ichkariga kirar ekanmiz, o'zbekona taxta so'rining ustidagi xontaxta yonida qalin muqovali “Qutadg'u bilig”ni mutolaa qilib o'tirgan kishiga yuzlandim. Meni ochiq chehra bilan qarshilagan bu inson O'zbekiston san'at arbobi, Abdulla Qodiriy nomidagi davlat mukofoti, “Fidokorona xizmati uchun” ordeni hamda “E'tirof – 2017” mukofoti sohibi, taniqli kompozitor, xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan yuzlab taronalarning muallifi Anor Nazarov edi.

EL SUYANGAN, ELGA TIRGAK QO'SHIQLAR

Uyimizda radio bo'lardi. Hovlimizning burchagiga ilingan bu texnikaning biz farzandlar tarbiyasiga yaxshigina ta'siri bo'lgan desam, yanglishmayman. Boisi, undan taraladigan dilga manzur kuy-qo'shiqlar, adabiy eshittirishlar, yozuvchi va dramaturglarning mashhur asarlariga ishlangan radio postanovkalarni tinglab ish qilardik, dam olardik. “O'zbekiston”, “Mash'al” (hozirgi “Mahalla”), “Yoshlar” radiokanallarining nafaqat har bir dasturi, eshittirish mualliflarigacha yuragimizdan o'rin olgandi. Ayniqsa, radio to'lqinlari aro taraladigan, ko'ngilni ko'taradigan, ertangi kunga, nuri istiqbolga umid uyg'otadigan, kuy, she'r va qo'shiqlar kexsa-yu, yoshni birdek xushnud qilardi. Endi o'ylasam, istiqbolning ilk yillarida biz shunday taronalarga suyanganmiz, ishonganmiz.

Mustaqil bo'lgan mamlakatimiz endigina o'zinitiklayotgan, odamlar orasida kelajakka hali ham arosat, mavhum bir ishonchsizlik bor murakkab vaqtda san'atdek kuchning ulug'vorligi bizga haqiqatdan ulkan madad bo'lgan. Vatanni sevis, o'z uyini, qo'rg'onini o'zi himoya qilish, yurt boshida turgan rahbarga ishonish va tirgak bo'lishda yurtparvarlik ruhi bilan sug'orilgan qo'shiqlarni yaratish davr taqozosi edi. Shunday muhim jarayonda odamlar va davlat o'rtasida ko'pri bo'lish, yurtimiz chin ma'noda o'zimizniki ekanligini kishilar ongiga singdirish uchun san'at va adabiyot peshvaralaridan faqat va faqat fidoyilik talab etilardi. Shukrki, vatanparvar, xalqini, ona diyorini yurakdan sevgan shunday insonlar bor edi. Bastakor Anor Nazarov ham shunday insonlar qatoridadir.

“MEN NECHUN SEVAMAN, O'ZBEKISTONNI”

1950-yil Toshkent viloyati Bo'ka shahrida tug'ilib voyaga yetgan Anorbek bolaligidan san'atga oshufta bo'ldi. Tabiatning xush havosini, soylarning shovullagan ovozi, qushlarning sayrog'ini kuydek tinglagan bolakay, yeri samoda har bir narsaning o'z ovozi, tovushi bor ekanligini payqaydi. Voyaga yetgach, Toshkent davlat konservatoriyasi (hozirgi O'zbekiston davlat konservatoriyasi)ga o'qishga kirib, iqtidorli va malakali ustozlar qo'lida musiqaning nozik jihatlari, notalarning ajabtovur ohanglarini o'rganadi.

Alisher Navoiy nomidagi davlat opera va balet teatrida sozanda, O'ztele-radiokompaniyasi qoshidagi “Estarada-simfonik orkestri”ning bosh dirijyori va badiiy rahbari, “O'zbeknavo” estarada birlashmasining direktori kabi lavozimlarda ishlagan kompazatorning ijodini kuzatgan kishi unda qo'shiqlar birlamchi ekanligini fahmlaydi. Anor Nazarov vatan haqidagi eng sara taronalarning muallifi sifati e'tirofga loyiqdir.

“O'zbekiston mushtarak”, “Ozod elning o'g'liman”, “Vatan yagonadir”, “O'zimning elim”, “Turkistonim yayra”, “Go'zal Toshkent”, “Ko'ring bu kun O'zbekistonni”, “Ulug'imsan Vatanim” kabi qo'shiqlarning tillardan dillarga ko'chishi bejiz emas. Qalb qo'ri, yurak izhori bo'lib yaralgan bu san'at asarlarini tinglaganda tinglovchi ham beixtiyor unga jo'r bo'lgisi keladi. Satrlari tanish ohanglariga esh bo'lmoqni istaydi. Barot Isroil she'ri, Zohida Umarova ijrosidagi qo'shig'ini eslasak:

**Darbadar kezmasa kim,
Yurt qadrin bilmas emush,
Musofir bo'lmaguncha,
Musulmon bo'lmas emush.**

Yoki o'zbekning yurtparvar xalq shoiri Abdulla Oripovning:

**Men nechun sevaman, O'zbekistonni?
Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo,
Nechun Vatan deya, yeru osmonni,
Muqaddas atayman, atayman tanho.**

– Ushbu she'rni xonandalar Nuriddin Haydarov, Kumush Razzaqova hamda Doston Ubaydullayev uchligida minglab o'zbekistonliklar yuragining hayratlanishida, buyuk ijodkorning mashaqqatga yo'g'rilgan baxti borligini anglab qolasan kishi.

IJODXONA

Kitob to'la javon, fortapiano, yozuv stoli ustidagi qahva va batartib nota yozuvlari bitilgan qog'ozlar. Mana shular ulug' ijodkorning kamtarona hayoti, faoliyati haqida tasavvur uyg'otadigan ijodxona. Qanchadan-qancha bebaho asarlar dunyoga kelgan, ilhom bilan muazzam tunlar, sohira tonglar kutib olingan, muhabbat bilan dunyoga kelgan, ishq bilan ko'ngillarni zabt etgan kuylarning



go'shasi. Kompazitor kuy chala boshlaydi. Oq-qora klavishlardan taralgan turfa tusli, his-tuyg'ular diini qamrab, ajib saodatli kunlarga ishora qiladi. Matlubaxon opa esa, bir chetda iymانبgina o'tirsa-da, har bir sadoga diqqat bilan quloq tutadi. Bu oilaning baxti ham shundadir balki. Yoningdagi yo'ldoshing senga ijod yo'lida ham qanot bo'lsa, yaratilarningni birinchi tinglovchisi bo'lib, xayrixohlik bildirsa umringning quyoshli tarafi shudir asli. Ikki o'g'ilni voyaga yetkazgan bu juftlik farzandlarining ham musiqa san'atini tanlashini, izdosh bo'lishini orzu qilishdi. Dilshodbek Nazarov ota yo'lidan borib, ko'pgina yutuqlarga erishdi. Fransiya davlat konservatoriyasini muvafaqqiyatli tamomlab, yurtimizda iste'dodli yoshlar orasidan birinchilardan bo'lib “Nihol” davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Ayni paytda ham jo'shqin ijod qilib, xorijda malaka oshirmoqda. Qahramon esa hozirda institutning magistratura bosqichi talabasi.

Asli, kasbi musiqa o'qituvchisi bo'lgan Matlubaxon opa bilan gurungimiz qizib, ijod zavqi, go'zal asarlar yaratilishiga borib taqaldi.

– Bilasizmi, men ulardagi vatanparlikni qadrlayman, – deydi opa.

– Anor akadagi nozik did va farosat, ularning shunday ajoyib asarlarni yaratishiga zamin bo'ldi. Qayerga bormaylik, odamlar bilan samimiy muloqot qilib, ulardagi mehnatsevarlik, mehmondo'stlik va bag'rikenglikdan ilhom olardilar. Qolaversa, ko'p kitob o'qib, she'rlarni juda ehtiyot bo'lib tanlar edilar.

“HAR BIR SHE'RNING O'Z KUYI BOR”

Ona yurt haqida bunday jonbaxsh kuylarni yaratgan insonning noyob fazilatlar egasi ekanligi rost. Vatanparvarlik ruhi bilan yashayotgan yurt posbonlarining mashaqqatli hayoti, fidoyi xizmati bilan bog'liq asarlarning ham ijodkor repertuarida salmoqli o'rin egallaganligi shundandir ehtimol. “Posbonlarimiz”, “Pahlavonlar – polvonlar”, “Chegarachi askar qo'shig'i”, “Askar yigit valsi”, “Mangu sharaflar”, “O'zbekiston askarlari marshi”, “El dardiga darmon bo'laylik”, “Leytenantga oshiq qiz” kabi bir qancha asarlarning olamga qo'shiq bo'lib taralishida kompazitorning xizmati e'tirofga molik.

– Men doim o'lmas, bebaho asarlar yaratishni orzu qilganman, – deydi Anor aka suhbat chog'ida. Tabiati bebaho, odamlari daryodil vatanni boricha kuyga sig'dirish katta jasorat menimcha. Men bu ishni to'laqonli uddaladim, deya olmayman. Hali qiladigan ishlarim, yozadigan kuylarim ko'p.

Har bir she'rning o'z musiqasi bo'ladi. Masalan, Abdulla Oripov, Erkin Vohidovning she'rini o'qigan chog'imdayoq, xayolan qulog'im ostida kuy jaranglay boshlasa, Rauf Parfi she'ri ayricha bir musiqani kutadi. Barot Isroilov, Jumaniyoz Jabborov, Anvar Obidjon, Muhammad Yusuf she'rlariga xalqona ohanglar jilo beradi. Hozirda shoirlar Iqbol Mirzo, Shukur Qurbon, Sirojiddin Sayyid, Maxmud Toir, Aziz Said yaxshi ijod qilishyapti. Mustaqilligimizning 25 yilligiga atab O'zbekiston haqida yozilgan qo'shiqlarim jamlangan saylanma yaratish niyatim bor edi. Lekin o'tgan yili bayram arafasida yurt boshiga tushgan qayg'u har birimizni g'amga botirdi. Hozir shu to'plam “Sharq” nashriyotida turibdi. Balki endi chiqib qolar.

Shu paytgacha mumtoz asarlarga qo'lgan yo'q. Ochig'i qo'rqaman. Mumtoz adabiyotimiz shu qadar bemisli, uni o'qib, kishining hayrati oshaveradi. Endi unga bastalangan kuy bu hayratdan o'n chandon yuqori bo'lmog'i, g'azalning soyasida qolib ketmasligi lozim. Buning o'ziga xos yuki, mas'uliyati bor. Alloh nasib qilib, tanga sog'liq qaytsa, shunday asarlar yaratishga bel bog'layman.

Xonadon sohibi bilan suhbatimiz anchagacha cho'zilishi mumkin edi. Lekin ularni toliqtirib qo'ymaslik niyatida ortga qaytdim. Ketar ekanman, boya yozuv stoli ustida ko'rgan qoralamalar va ulardagi sarkash notalar yodimga tanish ashulalarni soladi. “Ketma, vofodor”, “Tulporlarim qaydasiz?”, “Ohangaron o'lani”, “Sen bahorni sog'inmadingmu?”, “Farg'onada bittagina”, “Kipriging nega nam?”, “Do'lana”, “Arazlama”, “Yur, muhabbat”, “Mehr qolur”, “Ulug'imsan vatanim”... bularni yana qancha davom ettirish mumkin.

Anor aka aytgandek, hali yana qancha qo'shiqlar yozilardi...

(2024-yil 23-iyul)



Nizomiddin ESHMURODOV,
SIRTQI TA'LIM SHAKLI "MADANIYAT VA
SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINI TASHKIL
ETISH HAMDA BOSHQARISH" YO'NALISHI
5-BOSQICH TALABASI



Vatan

Vatan, seni asray oldimmi?
Vujudimda ojiz tanamday,
Suyuklardan suyukroqsan sen,
Mehribonsan munis onamday.

Sening har qarich yering,
Maysalarga hayot baxsh etar,
Baxtingman, deb otgan har bir tong,
Turmushingga farahbaxsh etar.

Ko'kka boqsang, musaffo osmon,
Yerda shodon kapalak raqsi,
Unda yashar el-ulus omon,
Boqsang go'yo jannatning aksi.

Kurash tushar maydonda mardlar,
Polvonlari ko'rk berar yurtga,
Ko'rkamlashib borar kun sayin,
Temurbeklar ulg'aygan o'lka.

Shijoat bor yongan ko'zida,
Ertasiga ishonchi komil,
Ulkan maqsad, umidlar bilan,
Tongni qarshi olayotgan dil.

Chin yurakdan shukrona aytgin,
Vatan mehri bong ursin bayot,
Nizomiddin, faqat shu o'lka,
Parvozingga baxsh etar qanot.



Nargiza SHODMONOVA,
"MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINI
TASHKIL ETISH HAMDA BOSHQARISH"
TA'LIM YO'NALISHI 3-BOSQICH TALABASI

Yarashmabdi

senga, mensizlik

Ko'zlaringda mag'zunlik ko'rdim,
Shamol silar sochimni yengil,
Ammo sukut soldi biyron til,
Yarashmabdi senga, mensizlik.

Yolg'izlikka o'rtoq bo'libsan,
Olov eding, nechun so'libsan?
Gohi pinhon yig'lab olibsan,
Yarashmabdi senga, mensizlik.

Qalbim o'rtar ko'p ozorlar bor,
Sog'inchlarim aylar intizor,
Endi tunlar bo'libsan bedor,
Yarashmabdi senga, mensizlik.

Dardlaring bor ammo pinhona,
Holing ko'rib bo'ldim hayrona,
O'sha kunlar endi afsona,
Yarashmabdi senga, mensizlik.



Vatan

Bu hayot ustingdan kulib turganda,
Azoblar bag'ringni yulib turganda,
Yuraging g'amlardan qasr qurganda,
Kimlarning kimligin bilib qo'ygin do'st,
Ko'zlaring yoshlama, kulib qo'ygin do'st.

Eng yaqin do'stlaring xiyonat qilsa,
Yoningda tursa-yu bag'ringni tilsa,
Farishtam deganing shaytonday bo'lsa,
Kimlarning kimligin bilib qo'ygin do'st,
Azobdan yonmagin, kulib qo'ygin do'st.

Kunlaring o'tkazma alam, dard bilan,
Gohida nomard-u, gohi mard bilan,
Yaxshilab o'ylagin farosat bilan,
Kimlarning kimligin bilib qo'ygin do'st,
Ko'ngilni g'ashlama, kulib qo'ygin do'st.



Elyor NAZAROV,
SIRTQI TA'LIM SHAKLI "MADANIYAT VA
SAN'AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH
HAMDA BOSHQARISH" YO'NALISHI
3-BOSQICH TALABASI

Oqibat

Urchigan, dillarda razolat,
Barchasi hasaddan dalolat,
Qolmagan el ichra adolat,
Oqibat yo'qolib bormoqda.

Odamlar tiyolmas jahlini,
Oshirgan mehrning narxini,
G'am bosib ko'ngilning shahrini,
Oqibat yo'qolib bormoqda.

Do'st – do'stni chuqurga itargan,
Otaga o'g'il qo'l ko'targan,
Haqiqat ko'zlari ko'kargan,
Oqibat yo'qolib bormoqda.

Ergashib nafs degan illatga,
Ne bo'ldi, mehmondo'st millatga,
Hurmatlar aylanib minnatga,
Oqibat yo'qolib bormoqda.

Duch kelsa, g'iybatni bo'lishgan,
Dunyo deb qanchasi urushgan,
Jigarlar yuz ko'rmas bo'lishgan,
Oqibat yo'qolib bormoqda.

Erlar mast, zinoga boylanib,
Ayollar fahsh ishga shaylanib,
Bolalar yetimga aylanib,
Oqibat yo'qolib bormoqda.

SHOXRUX MUXITDINOV,
FOLKLOR VA ETNOGRAFIYA TA'LIM
YO'NALISHI 1-BOSQICH TALABASI



Kutubxona ma'lumotning o'zgarmas xazinasi



Kamola ABLAQULOVA,
"Kutubxona – axborot faoliyati"
ta'lim yo'nalishi
3-bosqich talabasi

Kutubxonalar – bu insoniyatning bilim va madaniyatga bo'lgan cheksiz qiziqishini aks ettiruvchi maskandir. Kutubxona, nafaqat kitoblarni saqlash va boshqa axborot resurslarini jamlash joyi, balki fikrlar almashinuvi va bilimlarni o'zlashtirish markazidir. Bugun kutubxonalarning ahamiyati har qachongidan ham kattadir. Chunki ular bilimga, ta'limga va ijtimoiy rivojlanishga asos bo'lib xizmat qiladi. Kutubxonalar insoniyat tarixida bilim va ma'naviyatning markazi sifatida muhim o'rin tutadi. Ular nafaqat kitoblarni to'plashi, balki ilm-fan, madaniyat va tarixning beqiyos saqlovchilaridir.

Kutubxonalarning rivojlanishi va ulardan foydalanish tarixi butun insoniyatning intellektual taraqqiyotining ajralmas qismiga aylangan. Kutubxona – kitoblarni, jurnallarni, hujjatlar, video va audio materiallarni saqlash, to'plash va taqdim etish maqsadida tashkil etilgan joydir. Ular ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim olishni rag'batlantirish va jamoatchilikka bilim manbalarini taqdim etish uchun xizmat qiladi. Kutubxonalarning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

Axborot resurslarini saqlash va

taqdim etish – kutubxonalar o'zlaridagi axborot resurslarini jamoat uchun ochiq qilish va ularni doimiy ravishda yangilab borish bilan shug'ullanadi. Bilimlarni rivojlantirish – kutubxona nafaqat kitoblarni saqlaydi, balki ilmiy tadqiqotlar, adabiyotlarni taqdim etib, ta'lim tizimini qo'llab-quvvatlaydi. Madaniyat va tarixni saqlash – kutubxonalarda tarixiy hujjatlar, qadimiy qo'lyozmalar va boshqa madaniy merosning saqlanishi ta'minlanadi.

Ijtimoiy xizmatlar – kutubxonalar odamlar orasida madaniy va ilmiy muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi,

shuningdek, kutubxonalar bilan doimiy aloqada bo'lib, ularni kerakli axborot bilan ta'minlaydi.

Kutubxonalar insoniyat tarixining qadimiy davrlaridan buyon mavjud bo'lib kelgan. Dastlabki kutubxonalar qadimgi Shumer, Misr, Gretsiya va Rimda tashkil etilgan.

O'rta asrlarda, musulmon dunyosida ilm-fan va madaniyat rivojlanib, ko'plab kutubxonalar tashkil etilgan. Islom olamida ilm va bilimga bo'lgan hurmat, kutubxonalar orqali davom ettirilgan. O'rta asrlardagi Yevropadagi monastir kutubxonalari ham diniy ilm-fanlar, falsafa va san'atni rivojlantirishda

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, kutubxonalar insoniyat tarixidagi eng qadimgi va eng muhim ta'lim va madaniyat markazlaridan biridir. Ular bilimlarni saqlash, taqdim etish va rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi. Kutubxonalar nafaqat o'quvchi, talaba, ilmiy xodimlar uchun muhim resurs, balki jamiyatning ijtimoiy va madaniy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi, o'zaro aloqalarni rivojlantiruvchi vositadir. Zamonaviy kutubxonalar esa, yangi texnologiyalarni qo'llash orqali yanada kengroq imkoniyatlar yaratib, global axborot tizimining ajralmas qismiga aylanadi.

“YANGI O‘ZBEKISTON MADANIYAT VA SAN‘AT MENEJERLARI”

➡ Boshlanishi 1- betda

joriy yilning 7-fevral kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "Yangi O'zbekiston madaniyat va san'at menejerlari" loyihasi bo'lib o'tdi. Ushbu loyihaga, "Xalq ijodiyoti" fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari, "Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrasi dotsent vazifasini bajaruvchisi Mo'minmirzo Xolmo'minov rahbarlik qildi. Loyiha, "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish" ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari o'rtasida bellashuv tarzida 4 ta, "Renessans", "Yangi O'zbekiston menejerlari", "Kreativ menejerlar" va "Madaniyat fidoyilari" guruhlar o'rtasida, quyidagi shartlar asosida o'tkazildi:

1. Madaniyat va san'at sohasida zamonaviy loyihalar taqdimoti;
2. Madaniyat va san'at muassasalariga aholi tashrifini kengaytirishga qaratilgan zamonaviy reklama roligi;
3. Madaniyat va san'at sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar yuzasidan savollar.

Guruhlarning tayyorgarliklari, ishtiroki, kreativ yondashuvlari va imijlari yetuk mutaxassislar va professor o'qituvchilar



tomonidan munosib baholandi, diplom hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Loyihani o'tkazishda hamkor tashkilotlar, xususan: O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy merosilmiy-tadqiqot instituti, O'zbekiston davlat Yoshlar teatri, Toshkent shahar Yunusobod tumani madaniyat bo'limi, "O'zbekkonsert" davlat muassasasi, Muqumiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatri, O'zbekiston amaliy

san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi kabi tashkilotlar mutaxassislari tashrif buyurdilar.

Ushbu loyihani o'tkazishdan ko'zlangan maqsad, ta'lim-tarbiyani yoshlar ongiga singdirish, erkin va zamonaviy fikrlashga o'rgatish, kasbga fidoyilik, vatanga bo'lgan muhabbatni kuchaytirish, bilimga va yangiliklarga qiziqishni o'ttirish, qonun hujjatlarini sinchikovlik bilan o'zlashtirish, qolaversa, insonga haqiqiy ma'naviy kuch va iroda bahsh etuvchi, o'zligini

muhim rol o'ynagan. Bugungi kunda kutubxonalar faqat kitoblarni saqlash bilan cheklanmaydi, balki elektron resurslar, internet, ma'lumotlar bazalari va raqamli kutubxonalar orqali ham axborot taqdim etadi.

Zamonaviy kutubxonalar ko'plab xizmatlarni o'z ichiga oladi. Zamonaviy kutubxonalarning rivojlanishi axborot-texnologiyalarining jadal o'sishi bilan chambarchas bog'liq. Bugungi kutubxona nafaqat axborot yig'ish joyi, balki ilmiy hamkorlik, ijodiy fikrlash va yangi bilimlarni ishlab chiqish markazi sifatida ishlaydi. Kutubxonalar jamiyatning ilmiy va madaniy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Ular har bir insonning o'zini rivojlantirishga, bilim olishga va fikrlashni chuqurlashtirishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, kutubxona, madaniyat, adabiyot, san'at va tarixning saqlovchisi sifatida, kelajak avlodlarga meros sifatida yetkaziladi.

Kutubxonalar insonlarni birlashtiruvchi o'rni bilan ham muhim ahamiyatga ega. Bular ijtimoiy va madaniy sohalarida integratsiyani kuchaytiradi, odamlarni o'zaro fikr almashishga, ilmiy tadqiqotlar o'tkazishga, va birgalikda ishlashga undaydi. Buning natijasida kutubxonalar jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Barno RAVSHANOVA,
"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish"
ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

anglashga undaguvchi, milliy qadriyatlarimizni, urf-odatlarimizni targ'ib qilishda yetakchi o'rinlarda bo'lgan Teatrlarni ibratxona sifatida ko'rsatish va bu borada yoshlarni kreativ loyihalarini mustahkamlab, hozirgi zamonga tadbiq etishdan iborat edi. O'ylaymizki, bunday loyihalarning ko'payishi Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asoslaridan biri bo'ladi. Prezidentimiz aytganlaridek, "Jamiyat hayotining tanasi iqtisod bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir!".



Yurakka ko'milar asl shoirlar

Toshkent fotosuratlar uyida O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 70 yilligi munosabati bilan “Yurakka ko'milar asl shoirlar” nomli fotoko'rgazma tashkil etildi.

Fotoko'rgazmaga shoirning o'smirligi, hayotiga ilk qadam qo'ygan davri, oilasi va yaqinlari, tarixiy fotosuratlardan texnik fotomontaj usulidan foydalanib tayyorlangan fotosuratlar, ijod davridagi turli holat va kayfiyati, haqiqiy siyrati aks etgan.

Ko'rgazmaning ochilish tadbirida shoirning oilasi, yaqinlari, O'zbekiston Badiiy akademiyasi rahbariyati, shoir, yozuvchi, rassomlar, yoshlar, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etishdi. Davra suhbatlari bo'ldi. Tadbirda ko'rgazma muallifi Abdug'ani Jumaning “Muhammad Yusufning birinchi va so'nggi surati” nomli esse katalogi tarqatildi. Tadbirda milliy musiqalar yangradi.

Baxt

Kumush NORBADALOVA,
Madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini
tashkil etish hamda boshqarish ta'lim
yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Shahnoza ertalab quyoshning zarrin nurlari sochilib turganda uyg'ondi. Yengil shabada derazasidan kirib, xonani toza havo va yangi kunning umidi bilan to'ldirardi. U sekin o'rnidan turdi, deraza yoniga borib, tashqariga qaradi. Atrof jimjit, qushlarning chirqillashi esa tong sokinligini buzib, yuragiga allaqanday iliqlik olib kirardi.

Bugun Shahnoza o'zgacha quvonchni his qildi. Nima sababdanligini o'zi ham tushunmadi, lekin ichidan baxtning yaqinligini sezdi. U choy tayyorlash uchun oshxonaga yo'l oldi. Iliq choyni icharkan, xayoliga bir fikr keldi: “Baxt nimada?”

Ba'zilar baxtni boylilikda, ba'zilar esa yuksak martabalarda deb biladi. Lekin Shahnoza uchun baxt oddiygina bo'lishi mumkin edi, ya'ni yaqinlarining iliqlik so'zlari, samimiy tabassumi, qalbni quvontiradigan baxtiyor lahzalari... Shu fikr bilan u tashqariga chiqdi. Bog'da sayr qilib yurarkan, to'satdan bir kichkina qizcha yerga yiqilib tushganini ko'rdi. U darhol yoniga yugurib borib:

– Hech narsa bo'lmadi, yaxshi qiz! – dedi va qizchaga yordam berib, kulib qo'ydi.

Qizcha yig'idan to'xtab, unga qaradi va jilmaydi. Shahnoza yuragida g'alati hisni sezdi. Shu fursatda u tushundiki, baxtni qidirish shart emas, uni chin ma'noda his qilish kerak.

Baxt ba'zan katta yutuqlarda, ba'zan oddiy bir tabassumda yashirin bo'ladi. Inson yuragida shukronalik va mehnatni saqlay olsa, u har qanday vaziyatda ham baxtli bo'lishi mumkin. Zero, haqiqiy baxt tashqi dunyoda emas, balki insonning qalbida yashaydi.



Ko'rgazma

HASAN ABDUNAZAROV

Zamonaviy Eron xattotligi va miniatyurasi

Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura san'ati muzeyida mashhur musavvirlar Ali Ashraf Sa'idiqabodiy va Afsona Shahboziyning “Zamonaviy Eron xattotligi va miniatyurasi” nomli 30 ga yaqin ijod namunalari namoyish qilish uchun qo'yilgan ko'rgazma tashkil etildi.

Eron badiiy madaniyati o'z ildizlari bilan miloddan avvalgi V ming yillikka borib taqaladi.

Eron xattotligi Eron va butun islom dunyosi madaniy va ma'naviy merosining ajralmas qismi bo'lib, ushbu ko'rgazma mualliflari xattot va naqqosh Ali Ashraf Sa'idiqabodiy va Afsona Shahboziy Eron xattotlik va miniatyura san'atining qadimiy an'analarini davom ettirmoqda.

Ekspozitsiyada mualliflarning “Sabr va zafar”, “Bandan haq”, “Agar Eron bo'lmasa”, “Ishq so'zi”, “Chiroq yo'q”, “Suhbati jonon”,

“Layli va majnun”, “Koinot”, “Zamonaviy”, “Gul va bulbul”, “Ona”, “Nur”, “Sahifai Qur'on”, “Zamin”, “Daryo”, “Gul” va boshqa qator ijodiy ishlari tomoshabinlarda qiziqish uyg'otdi.

Tadbirning ochilishida Eron Islom Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi elchisi Muhammad Ali Iskandariy janobi oliylari, Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura san'ati muzeyi direktori Qarshieva Gulabza, O'zbekiston Badiiy akademiyasi rahbari o'rinbosari Toshmuhammedov Farhod Eminovich, rassomlar Ali Ashraf Sa'idiqabodiy, Afsona Shahboziy, Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura san'ati muzeyi direktori Qarshiyeva Gulabzalar qatnashdi va so'zga chiqdi.

Ko'rgazmaning ochilishida rassom, ijodkor, pedagoglar, talaba yoshlar va boshqa turli kasb egalari qatnashdilar.

“Shoushenkdan qochish”

Yozuvchilar o'z asarlari kino qilinishini xohlashadiyu, rejissyorlar asar mazmunini ekranga moslab o'zgartirishlarini yoqtirishmaydi. Ba'zida rejissyor qirqadi, tushirib qoldiradi yoki ekranga moslab o'zidan nimadir qo'shadi... “Cho'qintirgan ota”, “Shaytanat”, “Taxtlar o'yini” kabi filmlar bunga misol bo'la oladi.

Stiven King qalamiga mansub “Rita Xeyvort yoki Shoushenkdan qochish” asari ham 1994-yilda suratga olingan filmidan ayrim jihatlar bilan farq qiladi.

- ✓ Masalan, kitobda Ellis “Red” Ridding – oq tanli irland bo'ladi, filmida esa bu rolni qora tanli aktyor Morgan Friman ijro etgan.
- ✓ Endi Difreyn romanda umumiy 27 yil (1947-1975) qamoqda o'tiradi. Filmida esa 19 yil (1947-1966) qamoqda bo'ladi.
- ✓ Asarda u o'zi reja qilganidek tinch bir kechada qochib ketadi va uning qochganini bir necha kun o'tganidan keyingina sezib qolishadi. Filmida esa u jala yog'ayotgan yomon havoda qochadi va ertalabki nazorat paytida qochgani ma'lum bo'ladi.
- ✓ Kitobda direktor Norton iste'foga chiqib ketadi. O'rniga boshqasi keladi. Kinokartina esa direktor Norton qo'lga tushmaslik uchun o'zini o'ldiradi.
- ✓ Mahbuslarga qattiq zulm qiladigan, badjahl soqchi Hedli esingizdami? FBR uni qochish voqeasidan so'ng hibsga olardi. Asarda esa uni boshqa qamoqxona o'tkazib yuborishadi.
- ✓ Filmida Tommi ismli mahbus Difreynning xotinini o'ldirgan odamni tanishini aytganida qamoqxona direktori uni o'ldirib yuborgani ham esingizdadir. Stiven Kingning romanida esa Tommini o'ldirishmaydi, balki boshqa qamoqxona o'tkazib yuborishadi.
- ✓ Film yakunida Endi do'sti Redni Zixuatanaxoda kutib olardi. Kitob yakunida esa bunday lavha yo'q. Red o'sha joyga borish arafasida roman yakuniga yetadi...
- ✓ Xullas, badiiy asar kamdan kam hollarda o'z holicha ekranga ko'chadi. Ammo nima bo'lganda ham asarlarning ekranlarga chiqarilishi birinchi navbatda muallif va uning kitobi mashhur bo'lishiga sababchi bo'ladi.

OZODA SHOBILOLOVA,
TEATRSHUNOS

Qalb gavhari

FARZAND

- Nima go'zal?
- Farzand.
- Nima shirin?
- Farzand.
- Nima rohat?
- Farzand.
- Nima umid?
- Farzand.
- Nima taskin?
- Farzand.
- Nima quvonch?
- Farzand.
- Xunuklik bu...
- Kuydirgi farzand.
- Achchiqlik bu...
- Xasta farzand.
- Azobli bu...
- Tuproq... farzand...
- Noumidlik bu...
- Shaytoniy farzand.
- Halovatsizlik bu...
- Sayoq farzand.
- Xafagarchilik bu...
- Bema'ni farzand.
- Ya'ni farzand bu...
- Borlik va yo'qlik!

NAQSHIN INSON

- Eng qiyin narsa?
- Farzand tarbiyasi.
- Eng oson-chi?
- Albatta maslahat.
- Nima quloqqa xush yoqadi?
- G'iybat.
- Nima tan olinishi qiyin?
- Haqiqat.
- Eng yaramas illat?
- Hasad.
- Eng yoqimli tuyg'u?
- Muhabbat!
- Eng yoqimli inson?
- Iymonli inson.
- Eng yoqimsiz-chi?
- Mayxo'r.
- Go'zallik nimada?
- Ruh va jismning salomatligida.
- Xunuklik-chi?
- Ichki dunyoning mog'or bosishida.
- Insonning naqshi?
- Oz so'zlab, soz mehnat qiladigan.
- Xirasi-chi?
- Ko'p so'zlab, aravani quruq tortadigan.
- Qanday inson hurmatda?
- Sokin.
- Qanday inson nazardan chetda?
- Vahimachi.
- Bu dunyo...
- Hikmatli dunyo.
- Va yana?
- Qaytar dunyo.